



FARG'ONA VILOYATI
STATISTIKA BOSHQARMASI

FARG'ONA
VILOYATINING
DEMOGRAFIK HOLATI

2023- yil
yanvar-sentabr




FARG'ONA VILOYATINING DOIMIY AHOLISI*2023- yil 1- oktabr holatiga, dastlabki ma'lumotlar*

Farg'ona viloyatida 2023- yil 1- oktabr holatiga doimiy aholi soni 4 040,6 ming kishini tashkil etib, yil boshiga nisbatan 64,3 ming kishiga yoki 1,6 % ga ko'paydi. Jumladan, shahar aholisi soni 2 298,2 ming kishini (jami aholi sonidagi ulushi 56,9 %), qishloq aholisi soni 1 742,4 ming kishi (43,1 %) ni tashkil etdi.

Doimiy aholi soni**4 040,6***ming
kishi***Tabiiy o'sish****(+) 64,3***ming
kishi***Doimiy aholining yashash joyi bo'yicha taqsimlanishi****Shahar****Qishloq****56,9%****43,1%**


Farg'ona viloyati bo'yicha asosiy demografik ko'rsatkichlar

2023- yil yanvar-sentabr



Yosh guruhlari bo'yicha aholi soni


2023- yil 1- oktabr holatiga



2023- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, viloyat doimiy aholisi sonining 31,5 % i mehnatga layoqatli yoshdan kichiklar, 56,3 % i mehnatga layoqatli yoshdagilar va 12,2 % i mehnatga layoqatli yoshdan kattalar hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Yosh guruhlari va jinsi bo'yicha aholi tarkibi


2023- yil 1- yanvar holatiga



2023- yil 1- yanvar holatiga Farg'ona viloyatining doimiy aholisi tarkibini jinsi va yosh guruhlari bo'yicha (65 yoshgacha bo'lganlar 5 yillik yosh intervalida, 65 va undan yuqori yoshdagilar esa jamlangan holda) tahlil qilinganda, erkaklar tarkibida 4 yoshgacha bo'lgan bolalar eng yuqori ko'rsatkichni, ya'ni 236,7 ming kishini tashkil etgan. Erkaklar tarkibida eng kam aholi soni 60-64 yoshlilar hissasiga to'g'ri kelib, 76,3 ming kishini tashkil etdi. Shuningdek, ayollar tarkibida ham 4 yoshgacha bo'lgan qizlar eng yuqori ko'rsatkichni, ya'ni 220,6 ming kishini tashkil etgan bo'lsa, eng kam ayollar soni 60-64 yoshlilar hissasiga to'g'ri kelgan, ya'ni 83,1 ming kishini tashkil etgan.


Tug'ilishda kutilayotgan umr davomiyligi

2023- yil 1- yanvar holatiga



2023- yilning 1- yanvar holatiga Farg'ona viloyati aholisining kutilayotgan o'rtacha umr ko'rish davomiyligi 75,4 yoshni tashkil etgan. Erkaklar uchun 73,4 yoshga, ayollar uchun esa 77,3 yoshga teng. Shahar joylar 76,1 yosh qishloq joylar uchun kutilayotgan o'rtacha umr ko'rish davomiyligi 74,4 yoshni tashkil etgan.

Doimiy aholi sonining taqsimlanishi
2023- yil 1- oktabr holatiga




Doimiy aholi sonining hududlar bo'yicha taqsimlanishi

2023- yil 1- oktabr holatiga, ming kishi

	2022- yil	2023- yil	O'sish sur'ati, % da
Farg'ona viloyati shaharlar:	3 954,1	4 040,6	102,2
Farg'ona	303,9	320,0	105,3
Qo'qon	262,9	307,9	117,1
Quvasoy	98,3	100,7	102,4
Marg'ilon	245,7	250,0	101,8
tumanlar:			
Oltiariq	222,3	227,3	102,2
Qo'shtepa	202,1	207,7	102,8
Bag'dod	226,7	231,7	102,2
Buvayda	240	245,9	102,5
Beshariq	237,1	241,5	101,9
Quva	269,4	274,5	101,9
Uchko'prik	241,5	240,5	99,6
Rishton	211,1	215,8	102,2
So'x	81,5	83,2	102,1
Toshloq	213	217,9	102,3
O'zbekiston	249,6	234,0	93,8
Farg'ona	224,7	220,4	98,1
Dang'ara	184,1	176,1	95,7
Furqat	123,6	126,5	102,3
Yozyovon	116,6	119,2	102,2

Farg'ona viloyati bo'yicha aholi zichligi

2023- yil 1- oktabr holatiga, 1 kv.km.ga to'g'ri keladigan aholi soni, kishi




Farg‘ona viloyatida 2023- yil 1- oktabr holatiga 1 kvadrat kilometrga o‘rtacha 597,8 kishi to‘g‘ri kelgan. Bu esa o‘tgan yilning mos davriga nisbatan solishtirilganda 16,2 kishiga ortgan (2022- yilda 1 kv.km.ga 581,6 kishi).


Hududlar bo'yicha qaraydigan bo'lsak, aholi zichliginig eng yuqori ko'rsatkichi Marg'ilon shahrida 6 097,6 kishi, Farg'ona shahrida 2 150,5 kishi, Uchko'prik tumanida 1 031,8 kishi, Qo'qon shahrida 1 006,2 kishi, Toshloq tumanida 896,7 kishini tashkil etgan bo'lsa, eng past ko'rsatkichlar Yozyovon tumanı 292,9 kishi, Beshariq tumanida 312,0 kishi, Oltiariq tumanida 360,2 kishi, So'x tumanida 376,5 kishi, Farg'ona tumanida 390,8 kishini tashkil etgan.

Farg‘ona viloyati bo‘yicha aholi zichligi dinamikasi

1- yanvar holatiga, 1 kv.km.ga to‘g‘ri keladigan aholi soni, kishi




QAYD ETILGAN TUG'ILISHLAR
yanvar-sentabr

Hududlar kesimida tug'ilganlar soni va koeffitsiyenti
2023- yil yanvar-sentabr, kishi


2023- yil yanvar-sentabr oylarida 79,8 mingta bola tug'ilganligi qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti 26,6 promilleni tashkil etdi hamda bu ko'rsatkich 2022- yilga nisbatan 1,4 promillega oshganligi kuzatildi (2022- yilning mos davriga 25,2 promilleni tashkil etgan).


VAFOT ETGANLAR

yanvar-sentabr



Hududlar kesimida vafot etganlar soni va koeffitsiyenti


2023- yil yanvar-sentabr, kishi



2023- yilning yanvar-sentabr oylarida 13,7 mingta o'lim qayd etilgan bo'lib, har 1000 aholiga o'lim koeffitsiyenti 4,6 promilleni tashkil etgan hamda 2022- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan 0,2 promillega kamayganligi kuzatildi (2022- yilda 4,8 promilleni tashkil etgan).

O'limning asosiy sabablar bo'yicha taqsimlanishi

2023- yil yanvar- sentabr, kishi




2023- yilning yanvar-sentabr oylarida qayd etilgan o'lim holatining 63,1 %i – qon aylanish tizimi kasalliklaridan, 8,4 %i – o'simtalardan, 4,6 %i – nafas olish a'zolari kasalliklaridan, 5,8 %i – baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, 4,2 %i – ovqat hazm qilish a'zolari kasalliklaridan, 0,8 %i – yuqumli va parazitar kasalliklardan, 13,1 %i boshqa kasalliklardan vafot etganlar.

QAYD ETILGAN NIKOHLAR

yanvar-sentabr



Hududlar kesimida nikohlar soni va koeffitsiyenti 2023- yil yanvar-sentabr, birlik



2023- yilning yanvar-sentabr oylarida 20,3 mingta nikoh qayd etilgan bo‘lib, har 1000 aholiga nikoh koeffitsiyenti 6,8 promilleni tashkil etgan hamda 2022- yilga nisbatan 0,3 promille kamayganligi kuzatildi (2022- yilning yanvar-sentabr oylarida 7,1 promille bo‘lgan).

NIKOH DAN AJRALISHLAR

yanvar-sentabr



Nikohdan ajralishlar soni va koeffitsiyenti

2023- yil yanvar-sentabr, birlik

Farg'ona sh.	587	2,5 %
Qo'qon sh.	450	2,0 %
Marg'ilon sh.	271	1,5 %
Farg'ona t.	257	1,6 %
Rishton t.	257	1,6 %
Quva t.	254	1,2 %
Bag'dod t.	253	1,5 %
Oltiariq t.	228	1,4 %
O'zbekiston t.	225	1,3 %
Buvayda t.	223	1,2 %
Uchko'prik t.	223	1,3 %
Beshariq t.	198	1,1 %
Qo'shtepa t.	185	1,2 %
Dang'ara t.	172	1,3 %
Toshloq t.	156	1,0 %
Quvasoy sh.	145	1,9 %
Yozyovon t.	122	1,4 %
Furqat t.	120	1,3 %
So'x t.	84	1,4 %

2023- yil yanvar-sentabr oylarida 4,4 mingta nikohdan ajralishlar qayd etilgan bo'lib, har 1 000 aholiga nikohdan ajralishlar koeffitsiyenti 1,5 promilleni tashkil etgan hamda 2022- yilga nisbatan 0,1 promillega oshganligi kuzatildi (2022- yil yanvar-sentabr oylarida 1,4 promille bo'lgan).

AHOLI MIGRATSIVASI

(Doimiy yashash maqsadida ko'chib kelganlar va ko'chib ketganlar)

2023- yil yanvar-sentabr oylarida viloyat bo'yicha doimiy yashash maqsadida ko'chib kelganlar jami soni 6 919 kishini tashkil etdi. Doimiy yashash maqsadida ko'chib ketganlar soni jami 8 745 kishini tashkil etib, migratsiya saldosи minus 1 826 kishini tashkil etdi.

Farg'ona viloyati bo'yicha ko'chib kelganlar va ko'chib ketganlar soni

2023- yil yanvar-sentabr, kishi


	Ko'chib kelganlar Jami	Ko'chib ketganlar Jami
Farg'ona viloyati	6 919	8 745
<i>shaharlar:</i>		
Farg'ona sh.	3 305	1 973
Qo'qon sh.	171	865
Quvasoy sh.	383	257
Marg'ilon sh.	16	811
<i>tumanlar:</i>		
Oltiariq t.	121	300
Qo'shtepa t.	357	282
Bag'dod t.	16	256
Buvayda t.	120	296
Beshariq t.	194	492
Quva t.	153	459
Uchko'prik t.	120	233
Rishton t.	159	320
So'x t.	101	37
Toshloq t.	279	306
O'zbekiston t.	247	415
Farg'ona t.	418	800
Dang'ara t.	352	248
Furqat t.	291	242
Yozyovon t.	116	153

JAMI KO'CHIB KELGANLAR yanvar-sentabr




Ko'chib kelganlar soni va koeffitsiyenti

2023- yil yanvar-sentabr, kishi




2023- yilning yanvar-sentabr oylarida 6,9 mingta ko'chib kelganlar qayd etilgan bo'lib, har 1000 aholiga ko'chib kelish koeffitsiyenti 2,3 promilleni tashkil etgan hamda 2022- yilga 2,3 promille tashkil etgan.

JAMI KO'CHIB KETGANLAR

yanvar-sentabr


Ko'chib ketganlar soni va koeffitsiyenti

2023- yil yanvar- sentabr, kishi


2023- yilning yanvar-sentabr oylarida 8,7 mingta ko'chib ketganlar qayd etilgan bo'lib, har 1000 aholiga ko'chib ketish koeffitsiyenti 2,9 promilleni tashkil etgan hamda 2022- yilga nisbatan 0,1 promillega kamayganligi kuzatildi (2022- yilning yanvar-sentsbr oylarida 3,0 promille bo'lgan).

Demografik ko'rsatkichlarga izohlar

Doimiy aholi – ro'yxatdan o'tkazilayotgan vaqtida muayyan aholi punkti yoki hududda doimiy istiqomat qilayotgan aholidan iborat bo'lib, bunga ushbu hududda doimiy ro'yxatda turib, lekin vaqtincha yashamaydigan aholi ham kiritiladi.

Shahar aholisi – shahar hududlarida, ya'ni me'yoriy hujjatlar bilan shaharlar, shaharchalar sifatida belgilangan aholi punktlarida istiqomat qiluvchi aholi.

Qishloq aholisi – shaharlar va shaharchalar toifasiga kiritilmagan hududlarda – qishloq joylarda (ovullar, qishloqlar va boshqalar) istiqomat qiluvchi aholi.

Doimiy aholi sonini baholash – oxirgi aholini ro'yxatga olish ma'lumotlari asosida hisoblanib, unga har yili tug'ilganlar va muayan hududga ko'chib kelganlar soni qo'shilib, o'lganlar va muayan hududdan ko'chib ketganlar soni ayrıldi.

Tug'ilish – tug'ilish jarayonlarining sodir bo'lishi va boshqa xususiyatlarini tavsiflovchi ko'rsatkich.

1000 aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti – hisobot yilida jami tug'ilganlar (tirik) sonini hisobot davridagi doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.

1000 aholiga nisbatan o'lim koeffitsiyenti – hisobot yilida jami o'lganlar sonini hisobot yilidagi doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000 ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.

O'lim sabablari – o'limga yoki uning sodir bo'lishiga ta'sir etgan kasalikklar, patologik holatlar va jarohatlar, shuningdek, o'lim bilan yakun topgan jarohatga sabab bo'lgan baxtsiz hodisa va zo'ravonlik holatlari.

Nikoh – erkak va ayol o'rtasidagi, ularning bir-birlariga va farzandlariga nisbatan huquq va majburiyatlarini belgilab beradigan o'zaro munosabatlari shakli. Er va xotin o'rtasidagi yuridik munosabatlar fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish (FHDYO) organlarida nikohlarini ro'yxatdan o'tkazish natijasida o'rnatiladi.

1000 aholiga nisbatan nikohlar koeffitsiyenti – hisobot yilida tuzilgan nikohlar sonini doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000 ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.

Nikohdan ajralish (nikohni bekor qilish) – er-xotinlarning hayoti davomida, tomonlar uchun qayta nikoh huquqini beruvchi, nikohlarning to'liq yuridik to'xtatilishi, nikoh FHDYO yoki sud organlarida ajralishni ro'yxatdan o'tkazilganidan so'ng bekor qilingan hisoblanadi.

1000 aholiga nisbatan nikohdan ajralish koeffitsiyenti – hisobot yilida nikohdan ajralishlar sonini doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.

Ko'chib kelganlar soni – ko'chib kelganlarning absolyut miqdori, ya'ni muayyan hududga uning tashqarisidan ko'chib kelganlardan iborat. Ichki ishlar organlari tomonidan aholini yashash joyi bo'yicha ro'yxatga olishda tuziladigan statistik hisobga olish so'rovnomaclarini qayta ishlash natijasida ko'chib kelish.

Ko'chib ketganlar soni – ko'chib ketganlarning absolyut miqdori, ya'ni muayyan hududga uning tashqarisidan ko'chib ketganlardan iborat. Ichki ishlar organlari tomonidan aholini yashash joyi bo'yicha ro'yxatga olishda tuziladigan statistik hisobga olish so'rovnomalarini qayta ishslash natijasida ko'chib ketish.

Aholining migratsion o'sishi (farqi) – hisobot davrida ko'chib kelganlar va ko'chib ketganlar soni o'rtasidagi farqning absolyut miqdori.

Demografiya va mehnat statistikasi bo'limi

Tel: 73 241-97-74